

## **“Filial kubogi” musobaqasi**

TIQXMMI Qarshi filialining “Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi” tomonidan 2019-yil 27-30 sentyabr kunlari 1-oktyabr -“O’qituvchilar va murabbiylar kuni” ga bag’ishlab filial talabalari o’rtasida sportning voleybol turi bo'yicha “Filial kubogi” musobaqasi tashkil etildi. Musobaqaning birinchi bosqichi g’oliblari “Suv xo’jaligi va melioratsiya”, “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish”, “Yer kadastri va Yerdan foydalanish” va “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalaridan tarkib topgan jamoalar ikkinchi bosqichda ishtirok etishdi. Final bosqichida “Yer kadastri va Yerdan foydalanish” hamda “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” ta’lim yo’nalishi jamoalari o’zaro kuch sinashdi. Musobaqa natijalariga ko’ra, “Yer kadastri va Yerdan foydalanish” bakalavr ta’lim yo’nalishi talabalari musobaqaning bosh sovrini “Filial kubogi”ni qo’lga kiritdi. G’olib jamoa a’zolari esdalik sovg’alari hamda “Filial kubogi” bilan taqdirlandi.



**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**